



QASIDA VA TARIF JANRI XUSUSIYATLARI: MAQTOV, TANTANAVORLIK VA TARIXIYLIK

(I.Yusupov va E.Vohidov ijodi misolida)

Djangabaeva Hurliman Chingisbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17703778>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-qiyosiy tahlildagi maqolada qoraqalpoq adabiyotining ulug' shoiri Ibrohim Yusupov va o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Erkin Vohidov ijodida qasida va ta'rif janrlarining funksional va estetik modernizatsiyasi masalasini ko'rib chiqiladi. I. Yusupovning «Qoraqalpoq haqida so'z» tarifining (undagi «qalpoq» ramzi) tarixiyliigi va maqtoV xususiyatlari va E. Vohidovning «O'zbekim» qasidasi tarkibidagi tantanavorlik, tarixiylikning arxetipal va epik talqini hamda milliy maqtoVning falsafiy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur solishtiriladi. Maqolada har ikki shoirning klassik janrga milliy o'zlikni anglash falsafasini singdirishdagi buyuk mahorati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qasida, ta'rif, faxriya, tantanavorlik, tarixiy arxetip, etnosimvolizm.

Аннотация: В данной научно-сравнительной статье рассматривается вопрос функциональной и эстетической модернизации жанров касыда и таъриф в творчестве великого поэта каракалпакской литературы Ибрагима Юсупова и крупного представителя узбекской литературы Эркина Вахидова. С научно-теоретической точки зрения глубоко сопоставляются историчность и похвальные особенности определения И. Юсупова «Слово о каракалпаке» (символ «калпак») и торжественность в касыде Э. Вахидова «Узбегим», архетипическая и эпическая интерпретация историзма, а также философские основы национальной похвалы. В статье освещается большое мастерство обоих поэтов во внедрении философии национального самосознания в классический жанр.

Ключевые слова: Касыда, определение, похвала, торжественность, исторический архетип, этносимволизм.

Abstract: This article in a scientific-comparative analysis examines the functional and aesthetic modernization of the qasida and ta'rif genres in the works of the great poet of Karakalpak literature Ibrahim Yusupov and the prominent representative of Uzbek literature Erkin Vakhidov. The historicity and praise features of I. Yusupov's definition of «A Word about the Karakalpak» (the symbol of the «cap») and the solemnity, archetypal and epic interpretation of historicity, as well as the philosophical foundations of national praise in E. Vakhidov's ode «Uzbekim» are deeply compared from a scientific and theoretical point of view. The article highlights the great skill of both poets in introducing the philosophy of national identity into the classical genre.

Keywords: ode, definition, praise, solemnity, historical archetype, ethnosymbolism.

Mumtoz Sharq she'riyatida qasida janri yuksak poetik mahorat, uslubiy nafosat va o'ziga xos tantanavorlikni talab qilgan eng ulug'vor she'riy formalardan biri hisoblanadi. Uning ildizlari arab va fors adabiyotiga borib taqaladi, ammo keyinchalik turkiy adabiyot, xususan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar ijodida o'zining cho'qqisiga erishgan. An'anaviy qasidaning bosh maqsadi – madh (maqtoV) bo'lgan. U sultonlar, amirlar, din peshvolari yoki ulug' san'atkorlarni ulug'lashga xizmat qilgan [1974: 121-



122]. Klassik qasida nasib (kirish), gurizgoh (ta'rif) va madh (asosiy qism) kabi qat'iy tarkibiy qismlarga ega bo'lgan.

Qoraqalpoq adabiyotida esa qasidaga monand tarif (qoraqalpoqcha ta'riyp) janri bo'lib, ta'rif (tasvir, madhiyaviy tavsif) janri, garchi dastlab qasidaning tarkibiy (kirish yoki lirik chekinish) qismi bo'lsa da, Qoraqalpoq adabiy muhitida va og'zaki ijod an'alarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ta'rif, qoraqalpoq dostonchilik maktablarida va lirik asarlarda xalqning tabiat go'zalligini, hayot tarzini, urf-odatlarini chuqur etnosimvolizm darajasida tasvirlash vositasiga aylandi. Bu, ta'rifni estetik tasvirdan, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi maqtoviy-falsafiy janr darajasiga ko'targan.

XX asrga kelib, Markaziy Osiyo adabiyotlarida qasida janri katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Maqtov obyekti yakka hukmdordan, butun bir xalqning tarixiy matonati, madaniy ildizlari va erkinlik ideallariga qaratildi. Bu tendensiya qasida va ta'rif janrlarining tarixiylik va tantanavorlik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ularni milliy o'zlikni anglash falsafasiga singdirishga xizmat qildi. Ushbu tahlilning predmeti ham qasida va ta'rif janrlarining ushbu estetik va funksional evolyutsiyasini, ularning milliy-ma'naviyat asoslarini mustahkamlashdagi rolini yoritishdan iboratdir.

Ibrohim Yusupov va Erkin Vohidovning qasida (qoraqalpoq adabiyotida tarif) janridagi yirik asarlari – milliy ruhning shijoatini, erkinlik va g'ururni mujassam etgan yuksak adabiy hodisalardir. Ushbu tahlilning predmeti har ikki asarning janriy me'yorlarni qanday qilib milliy o'ziga xoslikning teran talqini uchun qayta ishlaganligini ilmiy metodlar orqali yoritishdan iborat.

Ibrohim Yusupovning «Qoraqalpoq haqida so'z» sheri o'zining boshlanishidayoq adabiy munozaraga kirishadi. Shoir o'zining lirik subyektini maqtovga (faxriya) tayyorlar ekan, sun'iy ilmiy bahslardan voz kechishini qat'iy e'lon qiladi:

Men talashib fazlu kamol,

Birov bilan baslashmayman.

Tarixchiga ochtirib fol,

Moziy uchun baxslashmayman [Юсупов И. 1972: 11].

Bu satrlar bilan shoir o'z xalqining qadriyatini ilmiy-siyosiy isbotlar orqali emas, balki yurakdagi g'urur va badiiy haqiqat orqali asoslash yo'lini tanlaydi. Bu ilmiy yondashuvda adabiy konsepsiya bo'lib, u milliy o'zlikni anglashni akademik munozaralar doirasidan chiqarib, badiiy-falsafiy darajaga ko'taradi. Asardagi eng yuksak tantanavorlik Tumaris arxetipi orqali yuzaga chiqadi. Tumaris — bu nafaqat tarixiy shaxs, balki ayol-onaning mardlikdagi arxetipi, miloddan avvalgi davrlardan meros qolgan dasht jangovarligining timsolidir:

Mard Tumaris – massagetning,



Qirq qizining urvog'iman.

Farzandiman massagetning,

Saxro qoraqalpog'iman [Юсупов И. 1972: 11].

Shoir o'z ajdod-avlodlarini, etnik kelib chiqishini Tumarisga bog'lab, qoraqalpoq xalqining kelib chiqishini «Skif-Sak sivilizatsiyasi»ning uzluksiz davomi sifatida tipiklashtiradi. «Saxro» so'zi bu yerda faqat geografik joylashuvni emas, balki erkinlik, mustaqillik va yengilmaslik ruhiyati bilan sug'orilgan hayot tarzini anglatuvchi keng ma'noli simvolga (etnosimvolga) aylanadi. Bu, yevropacha o'tmishni Rimo-Ellin merosiga bog'lash kabi, Markaziy Osiyo xalqlari uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi shon-sharaf bilan o'zlikni anglash usulidir.

I. Yusupovning ta'rif janridagi sherining mahorati «Qalpoq» timsolida eng teran ifodasini topadi. Shoir xalqni avvalo buyuk fazilatlari va etnik jihatlari bo'yicha ta'riflaydi:

Qora tovon, qora fuqaro,

Bobom ojar kishi bo'lgan.

Ko'ngli oq, qalpog'i qora,

Yov bilan ko'p ishi bo'lgan [Юсупов И. 1972: 11].

Bu parchadagi «Qora tovon, qora fuqaro» – xalqning tarixidagi qiyin davrlar va azob chekkanligini bildiruvchi diktomiya (qarama-qarshilik) yaratadi. Biroq, bu ijtimoiy qatlam tashqi bosqinchilarga (yov) qarshi turishda «ko'ngli oq, qalpog'i qora» bo'lgan matonatli ruhga ega. Bu yerda qalpoq tashqi ko'rinish (qora) va ichki ruh (oq) o'rtasidagi uyg'unlikni aks ettiruvchi asosiy etnosimvolga aylanadi. Eng asosiy, falsafiy vasiyat esa maqtoovni ekzistensial darajaga ko'taradi:

Gar yalang'och qolsang hamki,

Bek bo'l, bola, qalpog'ingga [Юсупов И. 1972: 11].

Bu «Bek bo'l» buyrug'i nafaqat ijtimoiy maqomni, balki har qanday sharoitda ham ruhiy mustaqillikni, shaxsiy suverenitetni saqlab qolishga qaratilgan chaqiriqdir. Qalpoqni yechmaslik orqali xonlarning ham, yovlarning ham hokimiyati rad etiladi. Bu, adabiy falsafada, insonning o'zlik qadr-qimmatini moddiy dunyo ustidan qo'yish tamoyilining yorqin badiiy talqinidir.

Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasi esa, I. Yusupovning ta'rifiy-simvolik yondashuvidan farqli o'laroq, klassik qasidaning epik tantanavorligi va keng qamrovli tarixiyliigi usulidan foydalanadi. Vohidov qasidasining tantanavorligi onomastika (atoqli otlar bilan ishlash) mahoratiga asoslanadi. Shoir tarixni yashab o'tgan shaxslar va joy nomlari zanjiri orqali aks ettiradi, bu esa asarga muayyan tarixiy maqom beradi:

So'ylasin Afrosiyobu, so'ylasin O'rxun xati,



Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbeгим.

Tog‘laring tegrangda go‘yo Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu,

Ikki daryo – ikki chashming, Chashmi giryon, o‘zbeгим [Вохидов Е. 2000: 105].

Afrosiyob va O‘rxun xatini bir qatorda tilga olish – bu xalqning yozma va og‘zaki tarixining birlashgan qadimiyligini isbotlashdir. «Chashmi giryon» (yig‘lagan ko‘z) metaforasi esa xalqning boshidan kechirgan biyony bosqinlar va zulmlar og‘rig‘ini ifodalovchi, dostonlardagi «marosiy» (alam-iztirob) unsurlariga ishora qiladi. Bu qism, qasidaning maqtov qismiga o‘tish oldidan xalqning qahramonligini asoslovchi fundamental poydevor hisoblanadi.

Qasidadagi maqtovning eng yuksak tantanasi xalqning ma‘rifat sohasidagi buyuk zotlariga qaratilgan. Bu maqtov nafaqat shon-sharaf, balki millatning global intellektual salohiyatini tasdiqlashdir:

Ilmu she‘rda shohu-sulton,

Lek taqdiriga qul,

O‘z elida chekdi g‘urbat,

Zoru-nolon, o‘zbeгим [Вохидов Е. 2000: 106].

Shoir bu yerda buyuk zotlarning fojiasini (g‘urbat, zoru-nolon) ularning dahosi bilan yonma-yon qo‘yadi, bu esa ulug‘likning qurbonlik talab etishini ko‘rsatadi. Bu maqtovning cho‘qqisi esa Navoiy maqomini xalqaro miqyosda belgilashda namoyon bo‘ladi:

Menga Pushkin bir jahonu,

Menga Bayron bir jahon,

Lek Navoiydek bobom bor,

Ko‘ksi osmon, o‘zbeгим [Вохидов Е. 2000: 107].

Bu solishtirish shoir konsepsiyasining yorqin ifodasidir. Shoir o‘z xalqining buyuk ajdodlarini G‘arb adabiy arxetiplaridan yuqori qo‘yish orqali, o‘zbek madaniyatining mustaqil va tengsiz qadriyatga egaligini e‘lon qiladi. «Ko‘ksi osmon» epiteti, Navoiyning ruhini va u yaratgan merosni jismoniy chegaralardan ustun qo‘yishini bildiradi.

Ibrohim Yusupov va Erkin Vohidov ijodiyotidagi bu asarlar qasida va ta‘rif janrlarining XX asrdagi eng muhim estetik g‘alabalari bo‘ldi. I. Yusupov folklorik-afsonaviy ildizlarga qaytish (Tumaris), vasiyat formasi va etnosimvolizm (Qalpoq) orqali xalqning ruhiy erkinligini maqtov ob‘yektiga aylantirdi. Uning asaridagi tantanavorlik ichki, falsafiy, ya‘ni «Beklik» maqomiga erishish chaqirig‘idir. E. Vohidov esa epik uslub, keng xronologiya va onomastika orqali milliy-tarixiy sintezni yaratdi, xalqning maqtovini madaniy va intellektual ustunlik darajasiga ko‘tardi. Uning qasidasidagi tantanavorlik esa tashqi, dostonona, xalqning butun dunyo oldidagi «g‘urur maqomi»ni e‘lon qilishdir.



Ikkala asar ham o‘z xalqining eng og‘ir davrlarida yaratilib, milliy adabiyotlarning ma‘naviy asoslarini mustahkamlagan, ilmiy va badiiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega bo‘lgan durdonalardir.

Adabiyotlar

1. Вохидов Е. Сайланма. III жилдлик, I жилд. – Тошкент: Шарк. 2000.
2. Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение. 1974.
3. Юсупов И. Чўл тўрғайи. – Тошкент: Гафур Гулом. 1972.